ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Rafiyeva Ruxshona

Toshkent davlat transport universiteti, 2-bosqich talabasi

El.pochta: ruxshonarafiyeva@gmail.com

Tel:+998932161823

MAQSUD SHAYXZODA IJODIDA BADIIY IZLANISHLAR VA UNING ADABIY MEROSI

Annotatsiya

Mazkur maqola shoir, publitsist, dramaturg va tarjimon Maqsud Ma'sumbek o'g'li Shayxzodaning hayoti va ijodini tahlil qilishga bag'ishlangan. O'zbek va ozarbayjon xalqlarining farzandi bo'lmish Maqsud Shayxzodaning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Shayxzodaning badiiy-estetik qarashlari o'zbek adabiy jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatgani haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar

musovotchilik, surgun, o'zbek adabiyoti, she'riyat, dramaturgiya, tarjimon, publitsist, serqirra ijodkor.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу жизни и творчества поэта, публициста, драматурга и переводчика Максуда Масумбек оглы Шейхзаде. В ней представлена информация о вкладе Максуда Шейхзаде, сына узбекского и азербайджанского народов, в узбекскую литературу. Также рассматривается, какое влияние оказали художественно-эстетические взгляды Шейхзаде на узбекский литературный процесс.

Abstract

This article is devoted to the analysis of the life and works of poet, publicist, playwright, and translator Maksud Ma'sumbek ogli Sheikhzade. It provides information about the contribution of Maksud Sheikhzade, a son of both the Uzbek and Azerbaijani peoples, to Uzbek literature. The article also discusses how Sheikhzade's artistic and aesthetic views influenced the development of the Uzbek literary process.

XX asr o'zbek adabiyoti rivojida milliy ruhni yangi bosqichga olib chiqqan bir qator ma'lum va mashhur ijodkorlar mavjud bo'lib, ular qatorida Maqsud Shayxzoda alohida o'rin tutadi. U o'zining serqirra ijodi bilan o'zbek adabiy tafakkurini boyitgan, adabiyotimizga yangicha falsafiy qarashlarni olib kirgan shoir, dramaturg va bir vaqtning o'zida tarjimon sifatida tanilgan. Shayxzoda ijodi o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va zamonaviy intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. 1908-yilning 7-noyabrida Ozarbayjonning Ganja viloyatning Oqtosh shahrida el-u yurtga mashhur shifokor Ma'sumbek va Fotimaxonim oilasida umid bilan kutilgan go'dak dunyoga keladi va unga Maqsud deb ism qo'yishadi. Otasining asl kasbi shifokor bo'lishiga qaramay, u san'at, adabiyot, tarix kabi sohalarga ham qiziqardi. Shu

tufayli ularning oilasida bu sohalarga oid turli suhbatlar, adabiy kechalar o‘tkazilardi. Mana shunday taraqqiyparvar oilada kamol topgan Shayxzoda boshlang‘ich va o‘rta ta’limni Oqtoshda olgach, Boku oliy pedagogika instutida tahsil oladi. 1925-yildan boshlab Darbanddagi maktablarda muallimlik qila boshlaydi. Darbanddagi qisqa faoliyati davomida Shayxzoda ham muallim, ham shoir, ham jurnalist, ham tanqidchi sifatida taniladi.

XX asr boshlarida Boku shahrida yashirin siyosiy tashkilot sifatida Musovot harakati paydo bo‘ldi. Bu harakat uch asosiy tamoyilga — turkiylik (til), islom (din) va yevropachilik (zamonaviylik, taraqqiyot)ga tayandi va milliy bayroqdagi uch rangda — moviy, yashil va qizil ranglarda aks etdi. 1920-yilda Ozarbayjonda sovet hokimiyati o‘rnatilgach, Musovotchilar bir necha yil yashirin faoliyat olib bordi va qurolli qo‘zg‘olon tashkil etdi. Biroq, 1926-1927-yillarda harakat yetakchisi Dadash Hasanov va uning hamrohlari hibsga olinib, jazolandi. Shu sababli, 1926-yilda Maqsud Shayxzoda ham Adhem Fayziyning “Milliy firqa” tashkilotiga a’zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun aybdor deb topildi va 1928-yilda O‘zbekistonga surgun qilindi.
Toshkentga kelgach, Shayxzoda turli gazeta va jurnal muharririyatlarida ishladi. Surgun davrida u o‘zbek tilini o‘rganish bilan birga, ushbu tilida sherlar yozishni boshladi. Shu tariqa, 21 yoshida u o‘zbek adabiyotiga “Sharq haqiqati” gazetasida chop etilgan “Traktor” nomli sheri bilan kirib keldi va o‘zbek adabiy jamoatchiligida yosh iste’dod sifatida e’tirof etildi. Uning ijodida Alisher Navoiy, Fuzuliy va Cho‘lpon kabi klassik va zamonaviy adiblarning merosi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq, Shayxzoda ularning an’analarini takrorlamasdan, zamon talablariga mos yangi izlanishlar olib bordi.

Qisqa vaqt ichida Shayxzoda yangi vatani O‘zbekistonning boy va tarixiy madaniyatiga, samimiy va mehmondo‘st xalqiga o‘zgacha mehr qo‘yadi, shu sababli surgun muddati nihoyasiga yetgandan so‘ng ham O‘zbekistonda qolishni afzal topdi. Shayxzoda bu bilan o’z ona Vatanidan aslo voz kechgani yo‘q, balki faoliyati davomida ozarbayjon tilida ham bir qancha go‘zal asarlar yaratdiki, ular hali hamon o‘quvchilar e’tiborida. Uning 1927-yilda yozilgan “Narimon haqida xalq masali” nomli she’ri Boku jurnallaridan birida xalq asari sifatida nashr etiladi.

She’riyat diyorin shoirlarimiz,

Har uy, har ko‘ngilga baytlar bo‘lsin yor!

Elga dastyor bo‘lsa she’rlarimiz -

Demakki, umrimiz o‘tmabdi bekor!

Maqsud Shayxzoda she’riyat shaydosi, adabiyot ixlosmandi bo‘libgina qolmay u haqiqiy shoir ham edi. Bunga Shayxzodaning birin-ketin dunyo yuzini ko‘rgan “Loyiq soqchi”,“O‘n she’r”, “Undoshlarim”, “Uchinchi kitob”, “Jumhuriyat”, “O‘n ikki”, “Yangi devon”, “Saylov qo‘shiqlari” kabi she’riy to‘plamlari va she’rlari ham yaqqol dalil bo‘la oladi. Ushbu to‘plamlarni o‘qir ekanmiz, ularda ozarbayjon she’riyat uslubining ustvorlik qilganini sezamiz. Shoirning keyingi ijodida esa o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyatining til xususiyatlari hamda uslubining o‘zlashtirganini ko‘rishimiz mumkin.

Maqsud Shayxzoda davr bilan hamnafas ijodkor bo‘lgan. Xalq boshiga kelgan og‘ir kunlarda u o‘z asarlari bilan ularga nafaqat dalda, balki shijoat va ishtiyoq baxsh etgan. Aniqsa,

2-Jahon urushi davrida yaratgan “Kurash nechun”, “Jang va qo‘shiq”, “Ko‘ngil deydiki”, “Kapitan Gastello” kabi asarlarida xalqni fashizmni yo‘q qilishga, hayotni, tiriklikni, or-nomusni saqlashga, ruhan yengilmaslikka va matonat ko‘rsatishga undadi. Taniqli adabiyotshunos olim, professor Naim Karimov ta’kidlaganidek, “Berlindagi Reyxstag ustida G‘alaba bayrog‘ining o‘rnatilishida shu she’rlarning ham kamtarona bo‘lsa-da, hissasi bor”.

Urush yillarida Maqsud Shayxzoda Shahobuddin Muhammad Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” va Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoyi Juvayniy” kabi asarlar asosida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazm shahzodasi Jaloliddin Manguberdining jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlab, “Jaloliddin Manguberdi” dramasini yaratdi. Afsuski, urushda qozonilgan g‘alabimizdan so‘ng xalq va armiyani jasoratga chorlagan “Jaloliddin Manguberdi” dramasi uchun Maqsud Shayxzoda “Feodal davri sarkardasi”, “Kavkaz xalqlarining jallodi” obrazini ideallashtirish ayblovi ila qatag‘onga uchradi.

Stalin vafotidan so‘ng, begunoh Shayxzoda oqlanib, O‘zbekistonga qaytdi, ammo NKVD xodimlarining tahqiri, Sibirdagi qiyinchiliklar uning madorini olib qo‘ygandi. Shunga qaramay otashqalb shoir urushdan keyingi farovon hayotni tarannum etuvchi she’rlardan iborat “O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu’la”, “Chorak asr devoni” to‘plamlarini nashr ettirdi. 1958-yilda esa qadimiy va zamonaviy poytaxtimiz madhiga bag‘ishlab, 18 bobli “Toshkentnoma” dostonini yozadi. Shayxzoda Toshkentni shunday ta’riflaydi:

Tuproq - semiz, suv - yaqin, havosi ochiq,

Quyosh esa yil bo‘yi bu yerga oshiq.

Katta elga qo‘nalg‘a bo‘ladigan joy,

Sharq-u g‘arb o‘rtasida katta bir manzil.

Shuningdek, Shayxzoda “Ortoq mulk”, “Chirog”, “Ortoq”, “Meros”, “Tuproq va haq”, “Ovchi qissasi”, “Iskandar Zulqarnayn”, “O‘n birlar”, “Jenya”, “Oqsoqol”, “Ahmadjonning hikmatlari” va “Nurmat otaning tushi” kabi lirik-epik dostonlar muallifi hisoblanadi. 1959-yilda u marifatparvar shoh va olim Mirzo Ulug‘bekning taqdiri haqida “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yaratib, o‘zbek dramaturgiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu asar Shayxzoda nomini boshqa mamlakatlarda ham tanitdi. Rejissor L.Fayziyev Shayxzoda ssenariysi asosida “Ulug‘bek yulduzi” filmni yaratdi. Bundan ilhomlangan Shayxzoda ahvoli og‘irlashishiga qaramay, “Abu Rayhon Beruniy” dramasini yozishga kirishdi. Beruniy haqidagi ko‘plab manbalarni o‘rgandi, hatto olim faoliyat yuritgan Hindistonga ham borib, ma’lumotlar to‘pladi. Ammo 1967-yil 7-fevralda, ko‘plab qiyinchiliklarga qaramay pok qalbini saqlab qolgan ijodkor hayotdan ko‘z yumdi. Afsuski, uning asarlarining xomaki nusxasi kasalxonada yo‘qolib ketdi.

Maqsud Shayxzodadan bizga o‘zligimizni anglatadigan she’rlar, tariximizni unutmaslikka da’vat qiluvchi dramalar, alloma bobolarimiz haqida yozilgan “Ulug‘bek kim?” (1943), “Navoiyning lirik qahramoni haqida” (1948), “Navoiy lirikasining ba’zi poetik usullari haqida” (1959), “Ustodning san’atxonasida” (1965-66), “G‘azal mulkining sultoni” (1966), “Tazkirachilik tarixidan” (1968) kabi ilmiy maqolalar, shuningdek, “Hamlet”, “Romeo va Julyetta” (U.Shakespeare), “Mis chavandoz”, “Motsart va Salyeri” (A.Pushkin), “Kavkaz asiri” (M.Lermontov), “Yolbars terisini yopingan paxlavon” (Sh.Rustaveli) kabi tarjima asarlar meros bo‘lib qolgan.

Shayxzoda faqat she’riyat bilan cheklanmagan qalam sohibidir. U she’riyatda qalblarga yo‘l topgan, tarjimada xalqlarni yaqinlashtirgan, publitsistikada zamon dardini ifoda etgan,

dramaturgiyada esa tarixni sahnaga olib chiqqan ijodkor edi. O‘z so‘zlarida u she’riyatda zamonaviy voqelikni, dramaturgiyada esa tarixiy o‘tmishni aks ettirishga, xalq va mamlakatning dardli masalalarini yoritishga intilganini ta’kidlagan. Shuning uchun uning ijodi 10-12 jilddan ortiqni tashkil etadi.

Maqsud Shayxzodaning zamondoshi, O‘zbekiston xalq shoiri Turob To‘la bunday degan: “Ulug‘ insonlar yulduzlar kabi yorib dunyoga keladilar. Butun umrlari davomida yonib, dunyoni yoritib yashaydilar. Yonib turib so‘nadilar. Ammo ularning nuri vafotlaridan keyin ham uzoq yillar davomida taralib, kishilar qalbi va shuuriga ma’rifat va ma’naviyat yog‘diradi, ezgulikning kamalak ranglarini tarqatadi. Maqsud Shayxzoda o‘zbek va ozarbayjon xalqlarining shunday o‘lmas siymolaridan biridir. Bunday siymolar o‘lmaydi, ular biz bilan, kelgusi avlodlar bilan yashashda davom etadilar”.

Darhaqiqat Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijod yoli vatanparvarlik, haqiqatgo‘ylik, hech qachon taslim bo‘lmaslik, ilm va san’atni uyg‘unlashtirish tamoyillariga chorlaydi. U o‘z asarlari orqali xalq dard-u tashvishini ifodalab, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, tarixdan saboq olish va kelajak avlod tarbiyasiga hissa qo‘shish muhimligini ko‘rsatadi. Shayxzodaning ijodiy merosi millatga sadoqatning yuksak namunasi sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalarto‘plami, Toshkent-2020, 5-12 b.
2. http://www.hrono.info/organ/ukaz_m/musavat.php
3. “Adabiyot” 8-sinf, Toshkent-2019, 131-133 b.
4. https://arboblar.uz/uz/people/shejkhzade-maksud-magsumbekovich
5. “Dunyo boqiy”, Maqsud Shayxzoda, Toshkent-1988.
6. https://oz.sputniknews.uz/20231030/maqsud-shayxzoda-biografiya-40453635.html
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Shayxzoda
8. “Maqsud Shayxzoda ijodiga bir nazar”, To‘rayev Mirfayz, maqola